

SULTON JALOLIDDIN – OZODLIK VA MUSTAQILLIK YALOV BARDORI

Otabayev Abdukadir Karimovich

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, mayor, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, mo'g'ullar, xorazmshohlar davlati, jang, ma'muriy idoralar, qudratli imperiya.

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberding hayoti va mamlakat ozodligi yo'lidagi dastlabki kurashlari tarixi qisqacha yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Buyuklik – bu inson taqdiriga bitilgan qismatdir. Tarix zarvaraqlarida esa Vatanimiz tarixi, sha'nini, shavkatini o'z buyukligi bilan bezab turgan shaxslarimiz bor. Ana shunday tarixiy buyuk ajdodlarimizdan biri mangulikka o'z ismi va jismi bilan mos bo'lgan buyuk sarkarda ajdodimiz – Jaloliddin Manguberdidir.

1198-yil Xorazm Sultoni Muhammad Xorazmshoh oilasida avlodi sha'nini dunyolarga taratuvchi, metin irodali, po'latdek mustahkam, kuch-g'ayratga ega bo'lgan bir o'g'il dunyoga keldi.

Xorazmshoh Takash suyukli nevarasiga Xorazmshohlar davlatini noiblik tobeligidan mustaqil davlat darajasiga ko'targan, Sul-ton Sanjardek Sharqni zir titratgan qudratli sul-ton bilan chorak asr kilich ser-pashgan jasur va temir irodali katta bobosi Jaloliddin Alouddin Otsiz xotirasiga ehtirom ko'rsatib, chaqaloqqa Jaloliddin Manguberdi nomini berishni Alamut safaridan qaytayotgandayoq ko'ngliga tukkan ediki, bu nom bilan chaqaloq nevara kelajakda dunyoda mangu bo'ladigan buyuk ishlarni amalga oshirishini astoydil istagan edi.

Jaloliddin (To'liq ismi Jaloliddin Ibn Alovuddin Muhammad) (1198-1231)-Xorazmshohlar davlatining so'ngi hukmdori (1220-31), mohir sarkarda. *Anushtegeniylardan*. Xorazmshohlardan Muhammadning katta o'g'li. Onasi Oychechak Turkman kanizaklaridan bo'lgan. Jaloliddin burnidan holi (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib «Manguberdi» nomi bilan mashhur bo'lib ketgan.

Shayxul-Valitarosh Najmiddin Kubro Jaloliddin Manguberding qalbiga ma'naviy-axloqiy tuyg'ularning ezgulik urug'larini ekar ekan, uni mardlik va Vatanga sadoqat hamda el-ulusi, xalqi uchun hech ikkilanmay jonini fido kilishga shay komillik cho'g'larini so'zlab beriladigan saboqlarning rejalarini tuzdi.

Avvalo, bu holatdagi saboqni olib borish uchun piri komil ustozning o'zi ilohiy ishqni yonib-yonib kuylab, ushbu ishq otashi shiddati bois qanotidan o't chaqnab yonib ketadigan, afsonaviy qaqnus qushdek ilohiy ishqdan to'yina-to'yina, Vatan ishqida jismi olovlangan ruh, zavqiyatida saboq beruvchi Shayxi Sharif zot mavqeida olovlanardi. Saboqlarning har birida muborak og'izlaridan duru gavhar to'kilardi.

Jaloliddin Manguberdini irfon-ma'rifati ummonida suzdriib, olam mohiyati va so'ngra inson mohiyatini

anglatar ekan, Sharif zot saodatga hidoyat etuvchi olamjaxon hikmatlar xazinasi bilan siyladi.

Saboq boshidan Jaloliddinning ruhiy zavqiyatini qo'zgab, erkin fikrlash kengliklariga parvoz kildirgach, Najmiddin Kubro mardlik va jasorat maydonida javlon uradigan inson, avvalo dunyo xoyu-havaslarini quli bo'lmasdan, Vatan va xalqining asl farzandi bo'lishi lozim. Negaki, podshohu xukmdorlarda ahli ayol ham, farzandlar ham, asosan serob bo'lgan. Ammo, ulardan nechalari Vatanga, ulusga nafi tegmay xalq xotirasida yomon nom qoldirib, moziy risolalarida tavqi lan'atlanib, qora sahifalar bitildi. Sen o'zingdan ulug'lik va buyuklik sahifasi qoldirishing lozimki, barcha davrlarning allomai zamon muarrihlari Vatan, yurtim va el-ulusim deya jangga kirganliging, g'animlarga dahshat solgan hjar kuningni bir kitobda jo qilolmay qiynalsinlar. Senga ustoz-shogird o'rtasida qoladigan bir sirni aytay, taqdiringni olamlar hukmdori Parvardigordan o'zga hech kim bilmas. Ammo, mening karomat imkoniyatim shuldirkim, navqiron yigitlik pallangdan to qazo qadar hayotingda kilich serpab o'tasan. Sening jangu jadaldagi qiliching zarbidan nafaqat g'animlar, balki osmonu zamin titraydi. Vatanga yo'naladigan bu ofat va to'fonning ibtidosi mashriq, zamin Chin-Mochinda hoziroq voqelik tusini oldi. (Bu bilan Shayxul-Valitarosh Najmiddin Kubro Chingizxonning dunyoga hukmron bo'lishini ko'zlab, oliy ruhoniysi Teb Tangriydan shu ishlarimga zafar tilang, deya ustoziga cho'k tushib, soatlab yolvorgan va oqibat Xitoy bosqiniga ruxsat olgan damlarni nazarda tutmoqda edi.) Saboq chog'larida piri komil Shayxul-Valitaroshning biror o'gitidan zarracha gumonsirashdan yiroq, sadoqatli shogird Jaloliddin Manguberdi Vatan or-nomusi va sharafi uchun faqat sizning o'gitlaringiz bo'yicha harakat kilaman, deya ustoziga so'z berdi. Oqibat shunday bo'ldi ham, Jaloliddin to so'nggi nafasigacha shu o'git ta'sirida yashadi, kurashdi.

Ana shu kungi saboqlardan keyin Jaloliddin Manguberdi fe'l-atvorida tub o'zgarish sodir buldi. U o'zini tubdan isloh qilishga kirishdi.

Tarixchilarning (an-Nasaviy, Rashididdin, Juvaniy va boshqalar) yakdillik bilan ma'lumot berishicha, uning ovoz chiqarib qah-qahlab kulganini, so'zamollik qilganini hech kim ko'rmagan, ayrim holatlardagina salgina jilmaygan xolos. Juda vazmin, bosiq va kamgap bo'lganligini qayd etadilar. Ustoz piri komil Jaloliddindagi shu sifatlarni tarbiyalashga fikru zikrini qaratganidan va uning natijasidan o'zida ijobiy qoniqish hosil qildi. Saltanatning faxriga aylanadigan hazrati inson huzurida shunday insonga qunt bilan tarbiya berayotganidan bag'oyat shod bo'ldi.

Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlariga hokim va taxt vorisi etib tayinlangan (1215). Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin Uzloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan (q. Irg'iz daryosi bo'yidagi jang).

Sulton Muhammad Xorazmshoh saroyida harbiy mashvarat chaqirildi. Bu yig'inga Najmiddin Kubro hazratlari o'zining o'rniga iqtidorli va bilimli shogirdi Majididdin Bag'dodiyini jo'natdi. Chunki bu yig'inda Najmiddin Kubro bostirib kelayotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi kurash emas, balki Arab xalifaliga qarshi urush ochish masalasi ko'tarilishini bilgan edi. Bu kurashga dashti qipchoq oliy amaldorlari Xorazmshohni zo'r berib yo'naltirishayotgan edilar. Majididdin Bag'dodiy so'z olib, "bilaman, agar biz bostirib kelayotgan mo'g'ullarga qarshi kurashmasak ana o'shanda daryo-daryo qonlar oqadi, arab xalifaligiga yangitdan urush ochish emas, balki bostirib kelayotgan mo'g'ullarga qarshi kurash tadorigini ko'rishimiz lozim. Ana shunda siz haqiqiy hukmdorga munosib ish ko'rgan bo'lasiz..." kabi fikrlarini isboti bilan bildiradi. Bundan g'azablangan Muhammad Xorazmshoh jallod, deya chorlab shunday ulug' insonni saroyda qonini to'kadi.

Sulton Jaloliddin va mo'g'ullar orasida ilk to'qnashuv sodir bo'ldi. Muhammad Xorazmshoh To'rg'ay cho'lidagi ahvolni bilish uchun shu tomonga ketadi. O'sha yerda aholini qoq ikkiga bo'lib tashlagan holatini ko'radi va chala yaradordan ahvolni bilib oladi. Bu ishni mo'g'ullar qilgan edilar. Jang

Muhammad Sul-ton qo'shinining hujumi bilan boshlandi. Lekin mo'g'ullar ustunligini namoyish qildi. Muhammad Xorazmshoh o'g'liga xabar yetkazishga ulgurdi. Bu mo'g'ullarga asir tushib qolishiga sal qolgan otasini qutqarish uchun bo'lgan mo'g'ullar bilan birinchi bo'lgan jang edi. Jaloliddin ana shu lahzalarda arslondek na'ra tortib, Jo'ji va Subutoy nuyonning birlashgan qo'shini halqasiga tashlandi. Uning bahodirlar qismi sarkarda shahzodani o'ng va chap tarafdin himoya kilishga kirishdilar. Shu tarzda jang maydonida Chingizxonning katta o'g'li nomdor sarkarda Jo'ji bilan Muhammad Sul-tonning katta o'g'li shahzoda ilk bora bir-biri bilan yuzma-yuz keldilar. Madad qo'shin yetib kelishini intiq bo'lib kutgan Muhammad Sul-tonning jangchilari ham ruhlanib qarshilikni kuchaytirdilar.

Ponasimon holatda mo'g'ullar qo'shiniga nayzadek qadalgan Jaloliddin Manguberdi va uning bahodirlari zarb bilan nihoyat kurshov xalqasini yorib o'tib, holdan toygani otasini jang borayotgan joydan uzoqlashtirish uchun maxsus bir necha qismni ular himoyasiga o'tkazdi. Shundan keyin Jaloliddin Manguberdi shunday bir suron solib jang qildiki, u mo'g'ullarni tutdek to'kdi. Endi jangning borishi tobora Jaloliddin qo'shini ustunligiga o'ta boshlagani yaqqol ko'rinib qolgan edi. Subutoy va Jo'ji kanchalik vaziyatni o'nglashga harakat kilmasin Jaloliddin qo'shini hujumini to'xtata olmadi. Har ikki taniqli mo'g'ul sarkardasi qo'shini katta talafot ko'rdi. Mo'g'ullar Xorazmshohning bunday dahshatlii sarkarda o'g'li borligini o'z ko'zlari bilan ko'rib, qilichining zarbini ilk bora tatib ko'rdilar. Shafqatsiz va benihoya og'ir jang kechgacha davom etdi. Chekinib jangni davom qildirayotgan mo'g'ullar yarador jangchilarini olib ketishning ham uddasidan chiqa olmadilar. Bu ikki mashhur sarkarda Jo'ji va Subutoy bu kunga qadar hech qachon mag'lubiyat nimaligii bilmay kelardi. Ular Chingizxonga zafar xabari va uning bilan birga qancha g'anim qavmlar sarkardalari, hukmdorlarini qo'l-oyog'ini zanjirlaganicha ularning boyliklari, bola-chaqa, xotin-xalaju malikalarini o'lja va covg'a qilib cheksiz xursandchilik bag'ishlar, saltanat hududlarini mashriq va mag'rib tomon kengayishini ta'minlar edi. Ayniqsa, Xitoyning yirik sarkardalari dodini berishda Subutoy va Jo'ji shunday xizmatlar qildiki, Chingizxon o'sha ikki sarkardasi bahodirligini ko'pchilikka ibrat kilib ko'rsatardi. Endi bu nomdor sarkardalarning tanobini tortib qo'yishga loyiq sarkarda borligini, xatto Chingizxonning 4 o'g'li – shahzoda qo'mondonlar va qolgan mashhur no'yonlari, Jaba, Jemuxa, Toxuchar, Qorachar, Shiki-Xutuhu va boshqa sarkardalarining birlashgan kuchlarini mag'lub qilishga qodir sarkarda bu Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin Manguberdi ekanligini e'tirof etishdi.

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahr-ga bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab Samarqandga yaqinlashganlarida Xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obiskun shahri yaqinidagi Ashur ada orolidan panoh topgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab, so'ngi damda Jaloliddin Manguberdini o'z o'rniga Xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin Uzloqshohlar bilan birga Urganch mudofaasiga oshiqadi.¹ Lekin Urganchdagi Qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suyiqasd uyushtirmoqi bo'ladilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Urganchni tark etib Xurosonga yo'l olgan.

Niso shahri yaqinida ularni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, qirib tashlaydi, keyin Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da'vat etdi. Bir oydan so'ng G'azni tomon yurdi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. U G'aznaga 1221 yil keldi. Bu yerda unga Xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam Malik, afg'onlar sardori Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig'i Hasan Qarluq kelib qo'shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan. Omon

¹ Sadrid-din Salim Buxoriy "Buyuk Xorazmiylar". Toshkent, 1993-yil.

qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib ko'prikn buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston tarixi. I qism. Toshkent, 1999-yil.
2. O'zbekiston xalqlari tarixi. I tom. A. Asqarov. 1992-yil.
3. Vatan tarixi. Sh.Karimov. Shamsuddinov. 1994-yil.
4. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent, 2001-yil.
5. Bo'riboy Ahmedov Tarixdan saboqlar. Toshkent, 1994-yil.
6. Hamid Ziyoyev "O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashganlarning tarixi" :T.-2001-yil.
7. Sadridin Salim Buxoriy "Buyuk Xorazmiylar". Toshkent, 1993-yil.
8. Najmiddin Komilov "Najmiddin Kubro", Toshkent, 1995-yil.
9. Tolibjonovich, M. T. (2021). The Constitution is a Legal Guarantee for the Development of the Country and the Well-Being of Society. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(2), 105-109.
10. Отабоев, А. (2023). ЯПОНИЯДА ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛАРИНИНГ ЎЗARO МУЛОҚОТИ ТАЖРИБАСИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 26(1), 126-131.
11. Najimov, M. (2019). IMPROVEMENT OF NORMATIVE CREATIVITY IS AN IMPORTANT ASPECT OF STATE LEGAL REFORM. *Review of law sciences*, 3(2), 7.
12. Ibragimov, M. A. (2023). Translation of Structures with Social and Grammatical Gender in the English Language (Based on Feature Film Scripts). In *Sustainable Development Risks and Risk Management: A Systemic View from the Positions of Economics and Law* (pp. 549-553). Cham: Springer International Publishing.
13. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.
14. Nasriddinovich, A. A. (2021, July). PROSPECTIVE DIRECTIONS OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In *E-Conference Globe* (pp. 234-237).